



PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Volume 7, Issue 12



Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities



PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR



«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

**“PEDAGOG”
RESPUBLIKA ILMIY JURNALI**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-DEKABR, 2024-YIL

7-TOM 12-SON

O‘ZBEKISTON
2024

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR



«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

“PEDAGOG” RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-DEKABR, 2024-YIL

7-TOM 12-SON

O‘ZBEKISTON
2024

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

MISKIN IJODIDA TARIXIY SHAXSLARGA MUROJAAT

Sodiqova Dilorom Tursunovna

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi, f.f.f.d(PhD)

E mail: sodiqoradilorom1@gmail.com.

ORSID: 0009-0000-9567-2528.

Annotatsiya: maqolada shoira she'riyati tahlili orqali uning muqaddas qadamjolarga tashrifi, nazmiy asarlaridagi jozibadorlikni, ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qilishi kabi xususiyatlar tahlilga tortilgan.

Tayanch so'zlar: Muhammad payg'ambar, badiiy san'at, lirk qahramon, g'azal, ruboii, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod, ta'did, qaytarish, mukarrar, tadrij, raddul-ajuz il-as-sadr, mutobiqa, musajja' g'azal.

Muslihabegin Miskin nazmiyatida islom olami, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom va uning sahobalari, ahli bayti madhi bilan bog'liq diniy-falsafiy mavzular salmoqli o'rinni tutadi. Albatta, shoira nafaqat ijodkor, balki o'z nazmiy asarlarida ba'zida asosiy qahramondir, biroq misralardagi «man» va «men» timsollari doimo individual xarakterga ega bo'lib qolmay, shu holatdagi barcha insonlarni mujassamlashtiradi. Islomdagi itoatkorlik, istig'for so'rash, sabr va ezgu amal ijodkorning ijodida butun bo'y-basti bilan gavdalaniadi.

Hazrat Boboyi Samosiy, Xo'jayi O'bon, Hazrati Og'oyi Buzurg, G'av sul A'zam kabi obrazlar Miskin devonlarida salmoqli o'rinni egallagan tarixiy shaxslardir.

Muslihabegin Miskin Naqshbandiya tariqatiga e'tiqod qo'ygan, hayoti davomida sabr-u toqat yuksak insoniy fazilat ekanini amalda isbotlagan. Shu bois ham u pirlardan sanalgan Boboyi Samosiy nomini ham eksak ehtirom bilan tilga oladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shoira naqshbandiya tariqatining vakili Boboyi Samosiy qadamjosiga juda ko'p tashrif buyurgan. Bu ziyoratgoh Buxoro viloyati Romitan tumanida joylashgan.

Xoja Muhammad Boboyi Samosiy – xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasasi, buxorolik yetti pirning beshinchisi. «In g'azal az baroyi Boboyi Samosiy...» («Bu g'azal Boboyi Samosiy haqida») sarlavhali quyidagi g'azal fikrimizning dalilidir:

Omadam bahri ziyorat in zamon dar oston,
To shavad oson maro in mushkili bor garon.
Dardmandam, mustamandam bahri darmon omadam,
Yak nazar sozed maro, ey oftobi du jahon.
Osiyam, bechoraam doram ba dil sharmandagi,
Zi on ki on holi taboham bar shumo boshad ayon.

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

Omadam, ey hazrati Bobo, man az bahri davo,
Zi rahi ixlos benihodam sari xud oston.
Bekas-u sargashta-yu hayron-u muztar mondaam,
Mekunam har ro'z-u shab man nola-yu oh-u fig'on.
Miskini bechoraam – aftoda dar girdobi g'am,
Rahm kun bar holiman, yo rab ba haqqi nazdigon. [1962,12^b varaq].

Mazmuni: Bu zamon ko'p miqdorda yog'iladigan mushkulim oson bo'lsin deb, ziyyorat uchun ostonasiga keldim. Dardliman, qayg'uliman, darmon istab keldim. Ikki jahon oftobi menga nazar soling. Osiyman, bechoraman, ko'nglimda sharmandalik bor, toki xarob bo'lgan ahvolim sizga ayon bo'lsin. Ey Hazrati Bobo, davo istab, ixlos qilib ostonaga keldim. Kimsasiz, sargardon-u, hayron-u, nochor qoldim. Kun-u tun men nola va oh-u fig'on qilaman. G'am girdobida qolgan darmonsiz, bechora, faqirman. Yo Rab, suyuklilaring haqqi, menga ham rahm qil.

Mo'min har qanday istagini Allohdan so'rashi kerak. Ushbu g'azalni o'qish jarayonida, shoiraning bu boradagi qarashlarida noqislik bor, degan fikr ko'ngildan o'tadi. Biroq g'azal maqta'sida najotni Allohdan so'rab, suyuklilarni robita sifatida keltirgani u haqidagi fikrning tamomila ijobji tomoniga o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Muslihabegim Miskin Islom olamida taniqli bo'lgan arboblar qatorida o'zi pir sifatida etirof etgan, xalq orasida G'arsul A'zam yoki Muhyiddin Piridastgir nomlari bilan mashhur bo'lgan Abdulqodir Jiloniy haqida ham yozadi, barcha nazmiy asarlarida bo'lgani kabi unga ham yuksak ehtiromni namoyish etgan holda murojaat qiladi. Shu o'rinda ushbu shaxs haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda quyidagilarni ma'lum qilish o'rinnlidir.

To'liq ismi Abu Muhammad Muhyiddin Abdulqodir ibn Abu Solih Abdulloh bo'lib, otalari Abu Solih binni Muso Jangido'st sharif Hazrati Hasan (r.a) avlodlaridan, onalari Ummixayr Fotima sayyida binni Abu Abulloh Hazrati Husayn (r.a.) avlodlaridandir. Islom dunyosining aqtobi arbaa (to'rt qutbi)ga mansub bu zot qodiriylik tariqatining muassisi bo'lgan. Bu tariqatning bosh dasturi "mashg'ullik ila forig'lik" (o'zing dunyo bilan mashg'ul bo'lgan paytda diling undan forig' bo'lsin)dir. «Ahd» bilan kirilmog'i lozim bo'lgan bu tariqat Misr, Andalus, Shom, Bag'dod, Onado'li, Markaziy Osiyo va Hindiston hududlarida tarqagan. Hazrati Navoiyning yozishicha, «Shayx Muhyiddin Abdulqodir Jiliy karomatlari tavotur (uzluksiz)... jahon shayxlarining birortasiga bunday karomatlar zohir bo'lmagan» .

"G'arsul-A'zam" ismila mashhur bo'lgan Shayx hazratlari Muso binni Yununiy, Nuriddin Ali Shattanafiy, Muhammad Todafiy, Muhammad Diloiy, Ibn Hojar, Mulukshoh Siddiqiy, Muhammad Mir Olim, Sharoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xojazoda Ahmad Hilmiy kabi ulamolarning tazkira va maqomotlarida ulug'langan.

Hazratning «Al-G'unyat li-tolibi tariqul-Haq», «al-Fathu-r-Rabboni val-Fayzu-r-Rahmoniy» («Sittin majolis»), «Futuhu-l-G'ayb», «Hizbi basharu-l-hayrot», «al-

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

Mavohibu-r-rahmoniyya val-Futuhu-r-rabboniya...», «Jalou-l-Xotu», «Yaroqutu-l-hikam», «Devoni Hazrati G’avsу-l-A’зам» («G’azaliyoti Muhyiy») kabi asarlari ma’lum¹.

«Nigar ki zori mustaram, yo shoh Muhyiddin vali ...» misrasi bilan boshlanuvchi g’azalida shoira G’avsul A’замга murojaat qilarkan, uning diydoriga mushtoq ekanligini, firoqida ko‘zлari yosh ekanligini oshkor etadi:

Nigar ki zori mustaram, yo shoh Muhyiddin vali,
Az furqatash chasm taram, yo shoh Muhyiddin vali.
Ham dardmandam ham g’arib shoho tuyi bar man tabib,
Diydori xudro kun nasib, yo shoh Muhyiddin vali [1962,79^b varaq].

Shoira o‘zini dardmand va g’arib sifatida tavsiflarkan, pirini shoh va tabib sanab, undan davo istaydi. Tabiiyki, bu davo ko‘ngil iztiroblariga malham bo‘lgulik ruhiy yaqinlikdir. Keyingi misralarda ham aynan ushbu mohiyatni saqlab qolgan holda, shoira Abdulqodir Jiloniyi Muhammad payg‘ambarning ko‘zlaridagi nur deb e’tirof qilarkan, uni avliyolarning a’losi nisbati bilan ham maqtaydi:

Ey nuri chashmi Mustafo, ey dardmandonro davo,
Eñ afzali kull avliyo, yo shoh Muhyiddin vali [1277,79^b varaq].

Miskinning «Maro xon az sakon, ey shoh, jamolatro namo, ey moh ...» misrasi bilan boshlanuvchi g’azalida Abdulqodir Jiloniyning eng asosiy xislatiga urg‘u beriladi, shoira uning dardlarni bartaraf etuvchi, kishilarning mushkulini oson qiluvchi hojatbaror sifatida tasvirlaydi:

Misol murg‘i nim bismil zi ishqat mubtalo in dil,
Ki doram qissai mushkil, ayo ma’shuqi rabboniy [1277,76^b varaq].

Mazkur misralarda shoiraning o‘zi muammolar girdobida ekanligini, mushkul qissasi borligini bildirib, o‘z piriga yuzlanadi. Keyingi misralarda esa undan ko‘mak so‘raydi, mushkulini oson qilishini so‘raydi.

Bekun hal mushkili moro ravo kun hojati moro,
Nazar kun so‘yi man, shoho, ayo ma’shuqi rabboniy [1277,76^b varaq].

Bunday iltijolar zamirida vasf etilayotgan manzurning «ma’shuqi rabboniy» ekanligi nazarda tutiladi. Mumtoz shoirlar ijodida kuzatilgani singari Muslihabegim Miskin she’riyatining ham asosiy obrazi lirik qahramon shoiraning o‘zidir.

Shoira she’riyatida Yusuf (a.s.) Muhammad (a.s.) obrazidan keyin eng ko‘p murojaat etilgan payg‘ambar obrazi sanaladi. Ya’qub (a.s.)ning o‘g‘lidan ayrilib, g‘am uyida iztirob chekishi bilan shoira Yusufsifat farzandlaridan ayriganligi orasida uyg‘unlik ko‘radi. Ana shunday badiiy lavhalar tasvirida shoira bu ikki payg‘ambar obrazidan ijodiy foydalanadi. U o‘rnini bilan Vomiq, Uzro, Farhod, Shirin, Layli, Majnun singari an’anaviy adabiy qahramonlarga murojaat etib, Muhammad (s.a.v) va G’avsul A’зам – Abduqodir Jeloni, Og‘oyi Buzurg – Qizbibi, Boboyi Samosiy singari pirlarga bo‘lgan ma’naviy muhabbatini badiylashtiradi. Nomlari keltirilgan pirlar obrazi ham

¹ Islom tasavvufi manbalari. Tasavvuf nazariyasi va tarixi, . – Toshkent, -2005.- . –B.13.

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

shoira she'riyatining muhim qahramonlaridir. Ular vositasida Muslihabegim Miskinning achchiq qismati o'quvchiga badiiy talqin etilishi bilan ular robitasida Allohning lutfiga sazovor bo'lisl istagi badiiy talqin etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom tasavvufi manbalari.Tasavvuf nazariyasi va tarixi. – Toshkent, - 2005. B.13.
2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar fondi. Inv.1277. -132b.
3. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 629-634.
4. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. *IMRAS*, 7(1), 779-783.
5. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. *O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(24), 22-25.
6. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(22), 66-70.
7. Тўраева, Л. О. (2022, June). Маколларда дехқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).
8. To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 7(7).
9. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – С. 47-49.
10. TORAYEVA, L. (2023). ЎРИМ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ОБРАЗЛАР ТАРКИБИ ВА БАДИЙ-КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 42(42).
11. Omonovna, T. R. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 34-39.
12. Omonovna, T. L. (2024). A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 2(20), 199-204.
13. To'rayeva, L. (2024). O'ZBEK XALQ O'YINLARIDA "BOBODEHQON" KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 2(20), 234-241.

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

14. To'rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasida hayotsevarlik g 'oyalari. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).
15. Tursunovna S. D. BUXOROLIK ZULLISONAYN SHOIRA //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 20. – С. 170-176.
16. Sodiqova D. Muslihabegim ijodida hadislarga murojaat //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 240-249.
17. Baxtiyorovna N. N. et al. JAMOL KAMOLNING "JAMILA" DOSTONIDA IJODKORNING BADIY MAHORATI //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 53. – №. 2. – С. 81-85.
18. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.
19. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
20. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.
21. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
22. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
23. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
24. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
25. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ "ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ" ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ "ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ" ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
26. Norova N. Ҳозирги шеъриятдаги поэтик янгиланишлар ҳакида //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
27. Norova N. Usmon Qo 'chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

28. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasи tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.
29. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёрова, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси,(PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.
30. Baxtiyorovna, N. N., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. International Journal of Formal Education, 3(4), 46–53. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479>
31. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 858-863. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 858-863.
32. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 372-380.
33. Rakhmuddinovna S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood...) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 31-36.
34. Raxmuddinovna S. Z. et al. USTOZ-IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 21. – №. 2. – C. 113-117.
35. Rakhmuddinovna S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 112.
36. Rakhmuddinovna S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 142-146.
37. Rakhmuddinovna S. Z. CHU JILVA AYLADI UL HUSN ISTABON OSHIQ.. //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 132.
38. Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. " Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – С. 20-22.
39. Sohibova, Z., & Quvvatova, D. (2019). Symbolic description of the year seasons in Uzbek poetry. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 8(9 S3), 1530-1534.
40. Nusratilloevna, S. Z. (2021). Some notes about the description of summer in uzbek poetry. World Bulletin of Social Sciences, 2, 73-77.

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – ТОМ 12 – СОН / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

41. Sohibova, Z. (2020, December). IN AGAHI'S POEMS ABOUT SPRING ABOUT REPEATING IMAGES. In Конференции.
42. Сохибова, З. (2020). ЗУЛФИЯ ИЖОДИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ ВА РАМЗИЙЛИК. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(1).
43. Sohibova, Z. N. (2020). THE SEASON OF AUTUMN AND THE MOTIVE OF PARTING IN THE WORKS OF NAVOIY. Scientific reports of Bukhara State University, 4(4), 213-218.
44. Nusratilloevna, S. Z. Description and Symbolic Meaning of Winter in Uzbek Poetry. International Journal on Integrated Education, 4(4), 327-334.
45. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
46. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
47. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
48. Tursunovna S. D., Pirimovich E. H. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER.
49. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – Т. 3. – №. 3.
50. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
51. Sodikova D. T. GLIMPSES TO FEMININE LITERATURE DURING THE DYNASTY OF BUKHARA EMIRATE: ALL ABOUT A POETESS MUSLIKHABEGIM MISKIN AND HER LITERARY HERITAGE //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 174-176.
52. Sodikova T. D. Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
53. Содикова Д. Т. ПРОБЛЕМЫ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ВСЕ О ПОЭТССЕ МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН И ЕЕ ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ //ББК 81.632 А43. – С. 174.
54. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetess during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.
55. Садикова D. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

56. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.

57. Садикова Д. Muslihabegim Miskin-XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.